




## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020 - yil yanvar-dekabr)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat sanoat korxonalari tomonidan 9417,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 103,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,605 % ni tashkil etdi.




## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida - 25,8 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida - 2,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 15,0 % ga o'sishi kuzatilib, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 8,2 % ga kamayishi kuzatildi.

\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,5 mldr. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,027 % ini tashkil etdi. 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9003,1 mldr. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,605 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 43,5 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 21,0 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 15,9 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 43,5 %.**



**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 21,0 %.**



**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -15,9%.**




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 345,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,663 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 125,8 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,705 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash – 65,3 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish – 34,0 % tashkil etdi.



● Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish



**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)**


Sanoat mahsulotlari	2020 - yil yanvar-dekabr	2019 - yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
<b>Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:</b>	209,5	564,1	-354,6
<b>Issiqlik energiyasi – ming Gkal:</b>	108,7	105,2	3,5
<b>Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:</b>	51692,0	51819,0	-127
<b>Maxsus yengil avtomobillar – dona:</b>	9023,0	7288,0	1735
<b>Aroq – ming litr:</b>	446,5	1279,1	-832,6
<b>Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:</b>	14,7	21,4	-6,7
<b>Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:</b>	838,1	1264,5	-426,4
<b>Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:</b>	92680,7	81648,1	11032,6
<b>Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:</b>	14741,7	18001,9	-3260,2
<b>Xo‘jalik sovuni – tonna:</b>	4107,0	5521,0	-1414
<b>Paxta tolasi – tonna:</b>	60766,3	62615,7	-1849,4
<b>Paxta chigit – tonna:</b>	97892,6	98501,8	-609,2

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 354,6 mln. kVts ga, yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) 127 donaga, aroq 832,6 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari 6,7 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 426,4 ming litrga, tozalangan o‘simlik yog‘i 3260,2 tonnaga, xo‘jalik sovuni 1414 tonnaga, paxta tolasi 1849,4 tonnaga, paxta chigit 609,2 tonnaga kamaygan.


Maxsus yengil avtomobillar, yumshoq bug‘doy va spelta uni sezilarli darajada oshgan.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

**2020 - yil yanvar-dekabr**



**2019 - yil yanvar-dekabr**



■ Yuqori texnologiyali  
■ O‘rta-yuqori texnologiyali

■ Quyi texnologiyali  
■ O‘rta-quyi texnologiyali

2019 - yil yanvar-dekabr oylarida o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 6,1 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020 - yil yanvar-dekabr oylarida bu ko‘rsatkich 6,3 % ga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 40,0 % dan 43,6 % ga, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,02 % dan 0,02 % ga oshgan bo‘lsa o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 49,6 % dan 45,7 % ga kamayish kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 1,9 mlrd. so‘mlik (2019 - yil yanvar-dekabr oylarida 1,3 mlrd. so‘m), o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 4299,1 mlrd. so‘mlik (4236,4 mlrd. so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 592,9 mlrd. so‘mlik (517,1 mlrd. so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 4109,2 mlrd. so‘mlik (3412,7 mlrd. so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



## Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>2020 - yil yanvar-dekabr mlrd. so 'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>9417,0</b>	<b>103,6</b>
Urganch shahri	1 842,9	100,2
Xiva shahri	149,7	105,8
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog‘ot tumani	325,3	108,8
Gurlan tumani	398,7	101,6
Qo‘shko‘pir tumani	236,4	104,5
Urganch tumani	341,4	107,2
Hazorasp tumani	277,8	116,5
Tuproqqa'l'a tumani*	4 261,4	104,3
Xonqa tumani	497,2	97,9
Xiva tumani	242,7	122,3
Shovot tumani	311,2	109,6
Yangiariq tumani	260,2	108,4
Yangibozor tumani	272,1	111,2


Yuqoridagi jadvalning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Tuproqqa'l'a va Yangiariq tumanlari, Xiva shahri, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Shovot, Yangibozor, Xiva, Hazorasp, Xonqa, Bog‘ot va Urganch tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.

**\*Tuproqqa'l'a tumani – 2020 - yil aprel oyida Hazorasp tumani hududidan alohida ajralib chiqqan tuman hisoblanadi.**




## Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2019 - yil yanvar-dekabriga nisbatan Xiva tumanida 122,3 %, Hazorasp tumanida 116,5 %, Yangibozor tumanida 111,2 %, Shovot tumanida 109,6 %, Bog'ot tumanida 108,8 %, Yangiariq tumanida 108,4 %, Urganch tumanida 107,2 %, Qo'shko'pir tumanida 104,5 %, Tuproqqa'l'a tumanida 104,3 %, Gurlan yumanida 101,6 %, Urganch shaxri 100,2 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada



SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI  
2019 - YIL YANVAR-DEKABR OYLARIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,3 %), Urganch shahri (19,6%), Xonqa (5,3%), Gurlan (4,2 %) hamda Urganch (3,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (2,6 %), Qo'shko'pir tumani ( 2,5 %) va Xiva shahri (1,6 %) ga to'g'ri kelmoqda.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)

**Iqtisodiy faoliyat turlari:**

**2020 - yil  
yanvar-dekabr**

**2019 - yil  
yanvar-dekabr**

**Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari  
bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi**

**9417,0**

**8538,6**

**Tog'kon sanoati va ochiq konlarni  
ishlash**

**2,5**

**2,4**

*ulardan:*

Tog'kon sanoatiga bog'liq boshqa  
faoliyat

**2,5**

**2,4**

**Qayta ishlash faoliyati**

**9003,1**

**8167,5**

*undan:*

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**1497,3**

**1218,5**

Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab  
chiqarish

**318,5**

**278,7**

To'qimachilik mahsulotlari ishlab  
chiqarish

**1973,8**

**1677,2**

Kiyim ishlab chiqarish

**67,1**

**21,5**

Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab  
chiqarish

**5,2**

**5,7**

Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va  
to'qish uchun materillallari, ishlab  
chiqarish

**11,8**

**9,2**

Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab  
chiqarish

**51,8**

**20,2**

Yozilgan materiallarni nashr qilish va  
aks ettirish

**1,3**

**1,7**


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari:</b>	<b>2020 - yil yanvar-dekabr</b>	<b>2019 - yil yanvar-dekabr</b>
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,9	0,7
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	45,6	42,1
Asosiy farmasevtika	1,5	0,9
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	67,5	52,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	311,8	265,5
Metallurgiya sanoati	38,0	32,5
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	161,3	146,1
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,4	0,5
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	26,5	28,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	128,0	545,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	4094,1	3619,7
Mebel ishlab chiqarish	44,6	42,4
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	137,9	137,6
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	13,4	19,8
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>345,0</b>	<b>318,0</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>66,4</b>	<b>50,7</b>




## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 6202,7 mld. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil etdi.

2020 - yil yanvar-dekabr



2019 - yil yanvar-dekabr



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 1616,7 mld. so'mni, alkogol ichimliklar 19,2 mld. so'mni va 4566,8 mld. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 109,2 %, 48,1 % va 103,4 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 65,9 % ni (2019 - yil yanvar-dekabr oylarida 69,6 %) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 396,5 mld. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 3444,7 mld. so'mni tashkil qilgan va 725,6 mld. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019 - yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>6202,7</b>	<b>100</b>	<b>104,5</b>
Urganch shahri	951,5	15,3	108,7
Xiva shahri	112,6	1,8	108,8
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	159,4	2,6	123,2
Gurlan tumani	192,9	3,1	107,3
Qo'shko'pir tumani	95,1	1,5	110,7
Urganch tumani	287,9	4,6	118,2
Hazorasp tumani	124,5	2,0	111,5
Tuproqqa'l'a tumani	3524,1	56,8	100,2
Xonqa tumani	270,7	4,4	116,1
Xiva tumani	130,4	2,1	100,0
Shovot tumani	152,4	2,5	109,7
Yangiariq tumani	109,6	1,8	107,0
Yangibozor tumani	91,6	1,5	108,8

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib, 56,8 % ni, shuningdek, Urganch shahrida 15,3 % ni, Urganch tumanida 4,6 % ni, Xonqa tumanida 4,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (104,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bog'ot tumanida (123,2 %), Urganch tumanida (118,2 %), Xonqa tumanida (116,1 %), Hazorasp tumanida (111,5 %), Qo'shko'pir tumanida (110,7 %), Shovot tumanida (109,7 %), Xiva shahrida (108,8 %), Yangibozor tumanida (108,8 %), Urganch shaxrida (108,7%), Gurlan tumanida (107,3 %), Yangiariq tumanida (107,0 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019 - yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1616,7</b>	<b>100,0</b>	<b>109,2</b>
Urganch shahri	571,7	35,4	109,4
Xiva shahri	57,9	3,6	108,9
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	118,5	7,3	123,1
Gurlan tumani	99,4	6,1	102,0
Qo'shko'pir tumani	54,3	3,4	101,1
Urganch tumani	154,4	9,5	118,7
Hazorasp tumani	70,7	4,4	103,1
Tuproqqa'l'a tumani	23,7	1,5	77,5
Xonqa tumani	174,3	10,8	111,9
Xiva tumani	65,6	4,1	97,4
Shovot tumani	103,4	6,4	108,8
Yangiariq tumani	55,9	3,5	105,1
Yangibozor tumani	66,9	4,1	116,8

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib - 35,4 % , shuningdek, Xonqa tumanida 10,8 %, Urganch tumanida 9,5 %, Bog‘ot tumanida 7,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bog‘ot tumanida (123,1 %), Urganch tumanida (118,7 %) kuzatildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, 4% da	2019 - yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>4566,8</b>	<b>100,0</b>	<b>103,4</b>
Urganch shahri	360,6	7,9	115,2
Xiva shahri	54,7	1,2	108,6
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	40,9	0,9	123,6
Gurlan tumani	93,6	2,0	113,7
Qo‘shko‘pir tumani	40,8	0,9	126,6
Urganch tumani	133,5	2,9	117,6
Hazorasp tumani	53,8	1,2	124,8
Tuproqqal'a tumani	3500,4	76,6	100,4
Xonqa tumani	96,4	2,1	124,5
Xiva tumani	64,8	1,4	102,9
Shovot tumani	49,0	1,1	111,6
Yangiariq tumani	53,7	1,2	108,9
Yangibozor tumani	24,7	0,5	91,7

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri keldi (76,6 %), shuningdek, Urganch shahrida 7,9 % ni, Urganch tumanida 2,9 % ni, Xonqa tumanida 2,1 % ni va Gurlan tumanida 2,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (103,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Qo'shko'pir tumani (126,6 %), Xonqa tumani (124,5 %), Bog'ot tumani (123,6 %), Urganch tumani (117,6 %), Urganch shahri (115,2 %), Gurlan tumani (113,7 %) va Xiva shahri (108,6 %) tashkil qildi.

### Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2019 - yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da)



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2019 - yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan Bog'ot tumanida (123,2 %), Urganch tumanida (118,2 %), Xonqa tumanida (116,1 %), Hazorasp tumanida (111,5 %), Qo'shko'pir tumanida (110,7 %), Shovot tumanida (109,7 %), Yangibozor tumanida (108,8 %), Xiva shahrida (108,8 %), Urganch shahrida (108,7 %), Gurlan tumanida (107,3 %), Yangiariq tumanida (107,0 %), Tuproqqa'l'a tumanida (100,2 %) va Xiva tumaniga (100,0 %) sezilarli darajada o'sgan.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020 - yil yanvar - dekabr oylarida, ming so‘m)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019 - yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da</b>	<b>Iste’mol mahsulotlari</b>	<b>2019 - yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>5009,6</b>	<b>102,0</b>	<b>3299,7</b>	<b>102,9</b>
Urganch sh.	12766,9	99,1	6591,4	107,5
Xiva sh.	1614,2	104,4	1214,1	107,2
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot	1969,6	106,9	965,1	121,0
Gurlan	2683,2	100,2	1298,6	105,9
Qo‘siko‘pir	1369,1	103,0	551,1	109,0
Urganch	1712,5	105,2	1443,9	116,0
Hazorasp	1430,9	147,4	641,2	141,0
Tuproqqal'a	76934,3	0,0	63623,3	0,0
Xonqa	2660,3	96,4	1448,2	114,4
Xiva	1660,7	120,2	892,2	98,4
Shovot	1825,4	107,9	893,8	108,0
Yangiariq	2236,5	106,8	942,3	105,4
Yangibozor	3109,3	109,7	1046,8	107,3


Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 5 009,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,0 % ga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar - dekabr oylarida Xiva shahrida 1 353,5 ming so'mdan 1 614,2 ming so'mga, Bog'ot tumanida 1 547,5 ming so'mdan 1 969,6 ming so'mga, Gurlan tumanida 2 406,6 ming so'mdan 2 683,2 ming so'mga, Qo'shko'pir tumanida 1 128,3 ming so'mdan 1 369,1 ming so'mga, Urganch tumanida 1 314,6 ming so'mdan 1 712,5 ming so'mga, Xazorasp tumanida 1 040,5 ming so'mdan 1 430,9 ming so'mga, Xiva tumanida 879,9 ming so'mdan 1 660,7 ming so'mga, Shovot tumanida 1 422,3 ming so'mdan 1 825,4 ming so'mga, Yangiariq tumanida 1 931,4 ming so'mdan 2 236,5 ming so'mga va Yangibozor tumanida 2 936,9 ming so'mdan 3 109,3 ming so'mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa'l'a tumanida (76 934,3 ming so'm), Urganch shahrida (12 766,9 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darjasini ko'rsatkichidan (5 009,6 ming so'm) yuqoriligi kuzatilgan.

Aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo'yicha 3 299,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 - yil yanvar-dekabr oylarida Urganch shahrida 5 642,1 ming so'mdan 2020 - yil yanvar-dekabr oylarida 6 591,4 ming so'mga, Gurlan tumanida 1 067,8 ming so'mdan 1 298,6 ming so'mga, Urganch tumanida 1 071,2 ming so'mdan 1 443,9 ming so'mga, Xiva tumanida 742,7 ming so'mdan 892,2 ming so'mga, Yangiariq tumanida 762,3 ming so'mdan 942,3 ming so'mga, Yangibozor tumanida 1 001,5 ming so'mdan 1 046,8 ming so'mga va Qo'shko'pir tumanida 405,2 ming so'mdan 551,1 ming so'mga o'sgani kuzatildi.



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

(2020 - yil yanvar - dekabr oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Gurlan tumani (76,3 %), Urganch tumani (75,7 %), Bog'ot tumani (75,7 %), Qo'shko'pir tumani (73,8 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

Viloyatda yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 780,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyl ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 29,5 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili Tuproqqa'l'a tumani (3,5 %), Yangibozor tumani (31,6 %), Urganch shahri (32,6 %), Xonqa tumanida (35,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 050,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,2 % ni tashkil etdi.




## Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021- yil 1- yanvar holatiga koʻra)

Viloyatda 3 614 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 721 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 20,0 %) Urganch shahriga, 419 tasi (11,6 %) Urganch tumaniga, 341 tasi (9,4 %) Xiva shahriga, 323 tasi (8,9 %) Xiva tumaniga toʻgʻri kelmoqda.



2020 - yil yanvar - dekabr oylarida viloyatda 963 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan eng yuqori bo‘lgan 159 tasi Urganch shahrida, 99 tasi Xiva shahrida, 94 tasi Qo‘shko‘pir tumanida tashkil etilgan.



### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo‘yicha 55 ta loyiha mavjud bo‘lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar - dekabr oylarida 189,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 836,2 ming AQSH dollarlik mahsulot eksport qilinib, 379 ta yangi ish o‘rnlari yaratilgan.

Dastur bo‘yicha shahar va tumanlar bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Urganch shahrida 15 ta loyihada 11,7 mlrd. so‘mlik, Xiva shahrida 3 ta loyihada

0,1 mlrd.so‘mlik, Gurlan tumanida 2 ta loyihada 0,4 mlrd.so‘mlik, Qo‘shtko‘pir tumanida 2 ta loyihada 0,7 mlrd.so‘mlik, Urganch tumanida 7 ta loyihada 32,4 mlrd.so‘mlik, Hazorasp tumanida 1 ta loyihada 6,1 mlrd.so‘mlik, Tuproqqa‘l’ a tumanida 11 ta loyihada 60,9 mlrd.so‘mlik, Xiva tumanida 4 ta loyihada 2,2 mlrd.so‘mlik, Shovot tumanida 2 ta loyihada 67,2 mlrd.so‘mlik, Yangiariq tumanida 4 ta loyihada 6,9 mlrd.so‘mlik va Yangibozor tumanida 3 ta loyihada 1,2 mlrd.so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

	2020 - yil yanvar-dekabr	2019 - yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, birlik	55	11
Korxonalar soni, birlik	44	8
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so‘m	189,9	38,3

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Sanoat statistikasi bo‘limi  
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99